

## MUSTAQILLK DAVRIDA YOSHLARDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI

*Teshayeva Shaxlo*

*SamDTU, Farmatsiya fakulteti talabasi*

*Yoshlarimiz o'z oldiga katta marralarni qo'yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko'mak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo'lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi.*

**Shavkat MIRZIYOYEV**

**Annotatsiya:** O'zbekistonda yoshlarni axborot olish sharoitlari omillarini hisobga olib, ulardan samarali foydalanish, bajariladigan ishlarining ta'sirchanligini nazorat qilib turish orqali jamiyatda mustahkam barqarorlikni ta'minlashga erishish kerak.

**Аннотация:** В Узбекистане необходимо добиться обеспечения прочной стабильности в обществе путем эффективного использования, учета факторов условий доступа молодежи к информации, контроля за действенностью выполняемой ими работы.

**Abstract:** In Uzbekistan, it is necessary to ensure lasting stability in society through effective use, taking into account the factors of conditions of access to information for young people, monitoring the effectiveness of the work they do.

**Tayanch so'zlar:** Internet, axborot, ma'naviy dunyo, axborot vositalari, zamonaviy texnologiyalar, ta'lim, tarbiya, jamiyat, davlat, taraqqiyot.

**Ключевые слова:** Интернет, информация, духовный мир, средства массовой информации, современные технологии, образование, воспитание, общество, государство, прогресс.

**Keywords:** Internet, Information, spiritual world, media, modern technology, education, Education, Society, State, Development.

Jamiyat taraqqiyotining jadal sur'atlarda rivojlanishi globalashtirish va axborotlashtirish asrini shakllantirmoqda. Hayotning barcha sohalarini informatsion texnologiyalar, axborot tizimlari, telekommunikatsiyalar shitob bilan zabt etayotgan bir paytda, O'zbekiston jahon hamjamiyatiga faol kirib bormoqda. Xorijiy mamlakatlar bilan xalqaro aloqalar mustahkamlanib, davlat, iqtisod, madaniyat va ma'naviyat,

huquq, sanoat, moliya, bank, qishloq xo'jaligi, tibbiyot, ta'lim va boshqa bir qator sohalarda shartnomaviy va diplomatik amaliyotning kengayishi yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishni talab etadi. Zero, axborotlashtirilgan jamiyatni yaratishda axborot madaniyati muhim ahamiyatga ega bo'lgan komponentlardan hisoblanadi.

Televideniya, radio, video, kompyuter o'yinlari va shu kabi zamonaviy texnika vositalarini kundalik turmushimizdan mustahkam o'rin egallashi, jahon axborot oqimi ma'lumotlarini qisqa muddatda, ko'p miqdorda, jonli ko'rinishda, yuqori samarada hayotimizga kirib kelishini ta'minlamoqda. Zamonaviy texnika vositalari yordamida bunday axborotlar massivini olishning yangi texnologiyalari, yoshlarning axborot madaniyatiga katta ta'sir o'tkazadi. Ayni damda yoshlar axborot ozuqasini olish maqsadida bo'sh vaqtlarining ko'p qismini Internet-kafelarda dunyoning turli chekkalaridagi axborot resurslaridan foydalanib o'tkazmoqda. Bunday axborot resurslaridan foydalanish, tashqi va ichki sharoitlarning o'zaro ta'siri, tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalash, yoshlarni siyosiy jihatdan kamol toptirish, uning ijodiy faolligini rivojlantirishning qudratli vositasi sifatida muhim rol o'ynaydi. Ana shu murakkab jarayon tarbiyani, axloq prinsiplarini yoshlarni fazilatlariga, uning xohish irodasini, yo'nalishlarini belgilaydigan xislatlarga aylantirish mexanizmidan iborat bo'lib, yoshlarga ta'sir o'tkazish va tarbiya sohasidagi aniq vazifalarni hal etish uchun foydalaniladigan vosita va usullar yig'indisi hamdir. Mana shu joyda bir narsani e'tirof etib o'tishimiz ham farz, ham qarz: bu vosita va usullar faqat ijobiy, bunyodkorlik maqsadlarida emas, balki salbiy, vayronkorlik maqsadlarida ham birdek ko'priklar vazifasini o'taydi. Bu esa bizning hududimizdan o'z maqsadlarini izlaydigan ko'pgina qudratli mamlakatlarning geopolitik maqsadlariga qo'l keladi. Xalqaro hamjamiyatda o'z mavqevini kuchaytirib borayotgan O'zbekistonga o'z mafkuraviy ta'sirini o'tkazishga urinayotgan kuchlar talaygina bo'lib, ular o'z manfaatlariga yo'naltirilgan mafkuraviy ta'sir ko'rsatish orqali yoshlarimizning ongi va qalbini egallab, yoshlar faoliyatini o'z ta'siriga olishga urinmoqdalar. Shu borada Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan "Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish uchun sarflangan sarmoya jamiyatga o'n, yuz barobar ko'p foyda keltiradi", - deb bildirgan fikrlari juda o'rinnidir<sup>1</sup>. Bugun yoshlarimiz tomonidan zamonaviy texnik vositalar yordamida jahon axborot magistralidan keng foydalanib kelinayotgan bir paytda, aynan mana shu texnik vositalarni, zamonaviy texnologiyalarni o'zimizning pirovard maqsadlarimiz bo'lgan ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot qurish borasidagi intilishlarimizda foydalana bilishimiz, boshqasha qilib aytganda, o'zimizga ishlata bilishimiz ham yoshlarda yuksak axborot madaniyatini shakllantirish orqali ta'minlanadigan jarayondir. Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish g'oyat xilma-xil

<sup>1</sup>Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. - T.: 2000. – B.466.

«informatsiya bosimi» tarkibidan milliy taraqqiyot manfaatlariga mos, ijobiy tomonlarini to'g'ri tanlab olishni ta'minlaydi.

Mafkuraviy kurash poligonlari - nazariyalar va g`oyalar kurashi poligonlariga aylanayotgan holatni siyosiy jihatdan yuksak tafakkur bilan “endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar ko'p narsani hal qiladi”<sup>2</sup> degan ta'rifga munosib javob topish ham yoshlardan yuksak axborot madaniyatini talab etadi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishda nimalarga e'tibor qaratish kerak, degan muhim masalaga oydinlik kiritib olishimiz kerak bo'ladi. Bu quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- **Birinchidan**, axborot olish va uni tasarruf etishda axborotning mazmun-mohiyatiga, uni haqiqiy ekanligiga, qanday omillarga asoslanganligiga va qanday maqsadda tarqatilayotganiga, qanday g`oya va qanday mafkuraga asoslanganligiga e'tibor qaratish;

- **Ikkinchidan**, axborotni qanday natija berishi haqida aniq tasavvurga ega bo'lish, uni analiz qilish, ijobiy va salbiy qismlarini aniqlab, so'ngra muayyan bir xulosaga kelish;

- **Ushinchidan**, axborotga ongli, yuksak tafakkur bilan yondashish va uni kerak hollarda sintez qilish, salbiy fikrlarga qarshi, axloqiy-ruhiy sharoitlar yaratish;

- **To'rtinchidan**, axborotda ijobiy fikrlarni jonlantirish, targ'ib etishda milliy mafkuramizga asoslanish. Bu ishni aniq tarixiy vaziyat bilan, rivojlanishimiz davom etayotgan ichki va tashqi sharoitlar bilan muttasil bog'lab olib borish;

- **Beshinchidan**, axborotda jamiyatimizdagi qarashlar rang-barangligi, g`oyalar xilma-xilligini saqlagan holda, fuqarolarni o'z fikrini erkin ifoda etishi va uni himoya qilishga ziyon yoki tazyiq o'tkazmaslik;

- **Oltinchidan**, yoshlarni axborot olish sharoitlari omillarini hisobga olib, ulardan samarali foydalanish, bajariladigan ishlarining ta'sirchanligini nazorat qilib turish orqali jamiyatda mustahkam barqarorlikni ta'minlashga erishish kerak.

Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishda Prezidentimizning «G`oyaga qarshi g`oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin» degan shioriga amal qilish eng yaxshi yo'l, taraqqiyot garovi bo'lishi tabiiydir. Zero, yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirmay turib, O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini takomillashtirish aslo mumkin emas.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: “O`zbekiston” NMIU, 2017y
2. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. - T.: 2000. – B.466.
3. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonshidir. «Fidokor» gazetasi muhbiri savollariga javoblar. –T.: O'zbekiston. 2000.

<sup>2</sup>Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonshidir. «Fidokor» gazetasi muhbiri savollariga javoblar. –T.: O'zbekiston. 2000.